

Mavzu: **Matn**

*Aa Kitob tuganmas xazina,
bilim esa boylikdir.*

direktor



1-mashq. Topishmoqning javobini toping. Gap kim haqida ketayotganini qaysi jumla orqali bilib oldingiz? Nima deb o'ylaysiz, bu matnmi?

Maktabda u eng katta,
So'zi o'tar albatta.
Buyruqlarga qo'l qo'yar,
Ishni tartibga solar.



Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'ying.
Qoidani yodda tuting.

Matn ... yoki ...
gaplardan tuziladi.
Matnda gaplar mazmun
jihatidan ... bo'ladi.

Foydalanish uchun
so'zlar: undan ortiq, ikki,
o'zaro bog'liq.





2-mashq. Gaplarni mazmunan o'z o'rniga qo'yib, matn tuzing. Unga sarlavha toping.

- Ularni yirtqich qushlar va yovvoyi hayvonlar ovlaydi.
- Ba'zan ekin maydonlariga kirib, hosilga zarar yetkazadi.
- Yovvoyi quyonlar o'rmonlar, dalalar va o'tloqlarda yashaydi.
- Yovvoyi quyonlarning hayoti doimo xavf ostida bo'ladi.
- Shu sababli quyonlar sergak, chaqqon va ehtiyotkor bo'lib yashaydi.
- Ular daraxt po'stlog'i va ildizlarini kemirishni yoqtiradi.
- Siz tabiatda yovvoyi quyonlarni ko'rganmisiz?
- Quyonlar nima bilan oziqlanadi?
- Yovvoyi quyonlar qayerda yashashi haqidagi gapni ko'chiring.



3-mashq. Ifodali o'qing. She'r mazmuni asosida quyonlar haqida kichik matn yozing.

Quyonlar


Oppoq-oppoq
Uzunquloq quyonlar,
Mendan aslo
Qo'rqib qochib yurmanglar.

Qani sizlar?
Tortinmayin kelingiz.
Sizga maysa –
O't keltirdi egangiz.

Zafar Diyor



4-mashq. O'qing. Matnga sarlavha qo'ying.



Qadimda odamlar bir-birlari bilan imo-ishoralar yordamida muloqot qilishgan. Ular og'ir sharoitlarda yashaganligi sababli birgalikda ov qilishni, yegulik topishni, boshpanalar qurishni o'rganishgan. Ibtidoiy odamlar bir-birlarini yordamga chaqirib, gapira boshlashgan. Shunday qilib, ularning og'zaki nutqi rivojlangan.



5-mashq. Ifodali o'qing. Husnixat asosida ko'chiring.



Uyg'oninglar bolalar,
Qani, tezda bo'linglar.
Sog'lom, tetik bo'lgani,
Birga o'ynab kulgani.
Bizlar sog'lom¹ o'samiz,
Doim kuchga to'lamiz.



- Badantarbiya bizga nima uchun zarur deb o'ylaysiz?